



THE IMPORTANCE AND ROLE OF SOCIAL WORK IN PREVENTING VIOLENCE AGAINST CHILDREN

Alisher Alimjanovich Utamurodov

Lecturer, Department of Psychology and Sociology
Alisher Navoi University of Language and Literature
E-mail: Alisherutamurodov5@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Society, family, women, research, violence, family relations, types of family, international experience, personality, negative vices, society and family.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: The author provides a comprehensive and comprehensive article on this topic. It emphasizes that family outreach focuses on reducing the risk of violence against children, supporting parents, and organizing psychological and social services.

In implementing these social protection goals for children in our society, the author analyzes key areas of strategy for ensuring a systemic approach to social protection and child protection, as well as the implementation of a clear system for recording cases of violence against children.

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA IJTIMOYIY ISHNING AHAMIYATI VA ROLI

Alisher Alimjanovich Utamurodov

Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti
"Psixologiya va sotsiologiya" kafedrasida o'qituvchisi
e-mail: Alisherutamurodov5@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jamiyat, oila, Bola, zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, kamsitilish, qarovsizlik.

Annotatsiya: Mazkur mavzudagi maqolada bolaga nisbatan zo'ravonlik xavfini kamaytirish, ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, psixologik va ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish bo'yicha alohida vazifalar belgilanganligi, jamiyat va oilani mustahkamlash bo'yicha ma'lumotlar asosiy o'rinda ko'rsatilgan.

Jamiyatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi mazkur vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy himoya va bolalarni himoya qilish sohalarida tizimli yondashuvni ta'minlash, bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari bo'yicha aniq tizimni joriy etish bo'yicha strategiyaning muhim yo'nalishlari tahlil qilib berilgan.

ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ДЕТЕЙ

Алишер Алимжанович Утамуродов

Преподаватель кафедры «Психология и социология»

Университет языка и литературы имени Алишера Навои

E-mail: Alisherutamurodov5@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общество, семья, ребенок, насилие, сексуальное насилие, физическое насилие, дискриминация, пренебрежение.

Аннотация: Статья по данной теме всесторонне и полно освещена автором. В ней подчеркивается, что в направлении работы с семьями ставятся особые задачи по снижению риска насилия в отношении детей, поддержке родителей, организации психолого-социальных услуг, а также отводится первостепенное место информированию об укреплении общества и семьи.

При реализации этих задач по социальной защите детей в нашем обществе анализируются важные направления стратегии обеспечения системного подхода в сфере социальной защиты и защиты детей, а также внедрения четкой системы учета случаев насилия в отношении детей.

Kirish. Bolalar jamiyatimizning eng muhim kelajagi, ularning xavfsizligi, farovonligi davlat uchun ustuvor vazifalardan biridir. Xar bir bola mehr, e'tibor va ximoyaga loyiq, ularning huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi esa ijtimoiy barqarorlikning asosidir. Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-2030 yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Farmonini imzoladi. Ushbu hujjat orqali oila muhitida bo'lmagan yoki zo'ravonlik xavfi ostida yashab kelayotgan, ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar uchun professional tutingan oila xizmati

yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida kichik hajmli ijtimoiy ko'mak markazlari tashkil etildi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish atamaları ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi. Shunga qaramay, ba'zi tadqiqotchilar bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish atamasini beparvolik ekspluatatsiya va odam savdosini o'z ichiga oluvchi soyabon sifatida ko'rishadi. O'zbekistondagi yoshlar, jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlar hamon o'zlarining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan sifatli yordam, qo'llab-quvvatlash, odil sudlov va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniga ega emasdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixga nazar solsak, XIX asrning oxirlarida ish beruvchilar va o'qituvchilar tomonidan bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'linishi odatiy va keng tarqalgan hol bo'lib, ko'plab mamlakatlarda jismoniy jazo qo'llash tartibi tabiiydek qabul qilinardi. Ammo XIX asrning birinchi yarmida filitsid holatlarini (ota-onalar tomonidan bolalarning o'ldirilishi) o'rganuvchi patologanatomlar otalik g'azabi [1], takroriy jismoniy zo'ravonlik [2], ochlik va jinsiy zo'ravonlik natijasida sodir bo'lgan o'lim holatlari haqida xabar berishdi [3].

1962-yil iyul oyida asosan pediatrik psixiatriya bilan shug'ullanuvchi C.Genri Kempe tomonidan yozilgan va Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi jurnalida chop etilgan "Kaltaklangan bola sindromi" maqolasining nashri bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo'lish umumiy tushunchaga kirgan paytni anglatadi.

Muhokama va natijalar. Ilmiy nuqtai nazardan asoslangan ijtimoiy xulq-atvorni o'zgartirish strategiyalarini ishlab chiqish orqali qizlar va o'g'il bolalarga nisbatan zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlovchi zararli ijtimoiy va madaniy me'yorlarni bartaraf etishda muhim qadamlar qo'yilgan. Jumladan, 2025 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakillari tomonidan 885 ta murojaat ko'rib chiqildi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47% ga ko'p). Xususan, 2025 yilning birinchi yarmida Bola huquqlari bo'yicha komissar 21 ta shaxsiy uchrashuv o'tkazdi, ular davomida 87 ta fuqaroning murojaati ko'rib chiqilgan. Bola huquqlari bo'yicha komissar kotibiyati xodimlari bolalar nomidan 20 ta sud majlisida kuzatuvchi sifatida ishtirok etilgan. Onlayn monitoring natijasida bolalar huquqlari buzilishining 185 ta holati aniqlanib, ular tegishli davlat idoralari bilan birgalikda tekshirilgan. Unga ko'a, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning 60 ta holati bo'yicha 16 ta jinoyat ishi va 22 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Demak bu kabi ma'lumotlardan bolalarni zo'ravonlik va diskriminatsiyadan himoya qilish bo'yicha huquqiy bazani mustahkamlangani hamda amaliy choralar ko'rilgan anglanadi.

Bu borada xalqaro tajribaga e'tibor qaratilsa, jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bolalarga nisbatan yomon zo'ravonlik holatlarini to'rt guruhga ajratdi:

jismoniy zoʻravonlik;
jinsiy zoʻravonlik;
hissiy (yoki psixologik) zoʻravonlik;
eʻtiborsizlik.

Demak:

1. Bolalarga nisbatan jismoniy zoʻravonlik - bu bola tana aʼzolariga ataylab tan jarohati yetkazish yoki ogʻriq berish orqali amalga oshiriladigan harakatlardir. Bunga quyidagilar kiradi: Urish, tepish, turtish, kaltaklash yoki boshqa buyumlar bilan urish, qoʻl bilan yoki boshqa usullar bilan chimchilash, mushtlash, bolani issiq, sovuq, yoki boshqa zararli sharoitlarda qasddan ushlab turish, tanaga zarar yetkazadigan tarzda jazolash kabilarni oʻz ichiga oladi. Bunday zoʻravonlik bolada nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham jiddiy zarar yetkazadi. Bu bolaning oʻziga boʻlgan ishonchini kamaytiradi, xavotir, qoʻrquv, tushkunlikka olib keladi, va uzoq muddatli psixologik travmalarga sabab boʻlishi mumkin.

2. Bolalarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik - bu bolaga roziligi yoki tushunishi boʻlmagan holda, jinsiy aloqalar yoki jinsiy harakatlarni amalga oshirishdir. Bunday zoʻravonlikning quyidagi shakllari mavjud: Jinsiy aloqada boʻlish, jinsiy zoʻravonlikka undash, jinsiy harakatlar bilan tahdid qilish yoki qoʻrqitish kabilarni oʻz ichiga oladi. Bolalarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham jiddiy zarar yetkazadi. Bu bola uchun ruhiy travmalar, ishonchni yoʻqotish, xavotir, tushkunlik, psixologik muammolar va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi.

3. Bolalarga nisbatan hissiy yoki psixologik zoʻravonlik - bu bolaning ruhiy va emotsional holatiga zarar yetkazuvchi, uning oʻzini past baholashiga, xavotir va stressga olib keladigan harakatlar yoki muhit. Bu turdagi zoʻravonlik jismoniy zarardan koʻra koʻproq koʻrinmas boʻlishi mumkin, lekin uning oqibatlari ham shunchalik chuqur va uzoq muddatli boʻlishi mumkin. Hissiy zoʻravonlikning turli shakllari mavjud, ular: Doimiy kamsitish va masxara qilish, ruhiy bosim oʻtkazish kabilarni oʻz ichiga oladi.

4. Eʻtiborsizlik yaʼni bolaning qarovsizligi - ota-onaning yoki bola uchun masʼul boʻlgan boshqa shaxsning bolaning sogʻligʻi, xavfsizligi yoki farovonligiga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan darajada oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, tibbiy yordam bilan taʼminlamasligi, nazorat qilmasligi. Eʻtiborsizlik, shuningdek, bola bilan bir muhitda turgan odamlarning eʻtiborsizligi va bolaning omon qolishi uchun tegishli va yetarli chora-tadbirlarni qoʻllamasligidir [4].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Bolalarga nisbatan zoʻravonlik - bu global muammo boʻlib, uning oldini olishda ijtimoiy ish muhim rol oʻynaydi. Ijtimoiy xodimlar zoʻravonlikka duchor boʻlgan bolalarni aniqlash, ularga yordam koʻrsatish va zoʻravonlikning oldini olish boʻyicha dasturlarni ishlab chiqishda muhim rol oʻynaydi. Ijtimoiy xodimlar zoʻravonlikka duchor boʻlgan

bolalarga yordam berishda, bolalarni himoya qilish xizmatlariga murojaat qilishi, psixologik yordam ko'rsatishi, huquqiy yordam ko'rsatishi, oilalarni qo'llab-quvvatlashi kerak buladi. Shu holatlar sodir bo'lmashligi uchun ota-onalarni tarbiyalash dasturlarini ishlab chiqish, maktablarda zo'ravonlikka qarshi dasturlarni ishlab chiqish, jamiyatda zo'ravonlikka qarshi masalalarda keyslarni o'tkazishishi maqsadga muvofiqdur.

Shuningdek, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda ijtimoiy ishning ahamiyatini oshirish uchun ijtimoiy xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ish sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishni ko'paytirish, jamiyatning zo'ravonlikka qarshi kurashdagi ishtirokini oshirish masalalari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Editorial (1848) Triple infanticide - suicide du meurtrier. Annales Médico-psychologiques 11: 108 only.
2. Leuret (1837) Suspicion de folie chez une femme reconnue coupable d'avoir, pendant sa grossesse fait des blessures mortelles a deux de ses enfans: affaire R. Annales d'Hygiène Publique et de Médecine Légale 17: 374-400.
3. Boys-de-Loury, Devergie, Ollivier (1843) Consultation medico-légale sur un cas de mort violente, chez un enfant de deux ans et demi. Annales d'Hygiène Publique et de Médecine Légale 29: 185-203.
4. X. Vohidov Din va jamiyat. – Toshkent.: Islom Universiteti nashriyoti. 2021.